

OYBEK HAYOTI VA IJODI UNING "NAVOIY" ROMANI YUZASIDAN
SAVOL-JAVOBLAR

(9-sinf adabiyot darsligi asosida)

	Savollar	Javob
1.	Oybek qachon va qayerda tavallud topgan?	Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905- yilning 10- yanvarida Toshkentning Govkush mahallasida tug'ildi.
2.	Yoshligida eski maktabga kim berdi?	Ota-onasi uni juda yoshligida eski maktabga o'qishga berishgan
3.	Oybekda adabiyotga muhabbat ko'rkam so'zga kim mehr uyg'otadi?	Adabiyotga ko'rkam so'zga mehri baland onasi Shahodatbonu
4.	Muso o'n to'rt yoshga to'lganda qayerda o'qiydi?	Namuna nomli boshlang'ich maktabda
5.	Oybek necha yoshida Navoiy nomidagi ta'lim- tarbiya texnikumiga o'qishga kirdi.	16 yoshida
6.	"Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Kimning tarjimai holidan olingan?"	Oybek
7.	Oybekning ilk she'ri qaysi gazetada bosilgan?	Texnikumning "Tong yulduzi" nomli devoriy gazetasida chiqdi.
8.	Oybek qaysi gazetaga mas'ul muharrir bo'ldi?	Texnikumning "Tong yulduzi" nomli devoriy gazetasi
9.	"Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Xotiramda bor, ilk she'rim texnikumning "Tong yulduzi" nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zim mas'ul muharrir bo'ldim. Sekin-sekin respublika gazetalarida she'rlarim bosila boshladi". Kimning tajimayi holidan olingan?"	Oybek
10.	Oybek oriq va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir... qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. Yirik qora ko'zlari shogirdlik davridayoq teran ma'noli va xayolchan edi... kimning xotiralaridan olingan?	Zarifa Saidnosirova
11.	U ba'zan yo'limni to'sar, gazetaga biror narsa yozib berishim yoki rasm solishimni so'rar edi. U bir kuni she'rga liq to'la, qalingina, sariq muqovali daftarni qo'linga tutqazdi-da, she'rlarning boshi va oxiriga kichik kichik	Zarifa Saidnosirova

	rasmlar chizib berishimni so'radi. Yo'q deya olmadim va eng nozik mo'yqalam va akvarel bo'yoqlar ila rasmlar chizdim...". Oybek haqidagi ushbu fikrni kim aytgan?	
12.	Oybek qayerda o'qidi?	1925- yilda texnikumni tugatgan Oybek O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ga o'qishga kirdi. 1927- yilda o'qishini Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomidagi xalq xo'jaligi institutiga ko'chirdi. Namxush va zax Peterburgda tahsil bilan o'tgan ikki yil shoirning salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatdi va u 1930- yilda o'zi o'qigan universitetga qaytib keldi.
13.	Oybek kimning ta'sirida adabiyotga kirib keldi?	Cho'lpon
14.	Oybek 30 yillarda qaysi asarlarni yozdi?	"Dilbar davr qizi", "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Navoiy" singari o'nga yaqin doston yaratdi.
15.	Oybek 30 yillarda dostonchilikdan tashqari qaysi janrlarda sinab ko'rdi?	Hikoyachilikda ham o'zini sinab ko'rdi.
16.	1937- yilgi qatag'on shamoli Oybekni ham chetlab o'tmadi. Uning uchun ...	U til va adabiyot institutidagi ishidan haydaldi. Yozuvchilar uyushmasi safidan chiqarildi. Matbuot eshiklari yopildi.
17.	Oybek ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi asarini yozdi?	Navoiy romani va "Mahmud Torobiy" tarixiy dramasi yozilgan.
18.	Oybekning milliy ozodlik yo'lidagi kurash aks etgan asari qaysi?	"Mahmud Torobiy" tarixiy dramasi
19.	1943- yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi sifatida qaysi ijodkorlar akademik unvonini oldi?	Oybek, H. Olimjon, G'. G'ulom
20.	Qaysi jodkor urushdan keyin to 1951- yilga qadar akademiyaning gumanitar bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi.	Oybek
21.	Kim O'zbekiston yozuvchilar	Oybek

	uyushmasi raisi qilib ham saylandi va 1949-yilgacha shu lavozimda mehnat qildi.	
22.	Qaysi ijodkor adib "Oltin vodiya shabadalar" romanini yozdi.	Oybek
23.	Oybek 1951- yilda og'ir xastalikka chalindi. Gapirolmay qolgani, harakatlari cheklangani, xotirasi susayganiga qaramay, u umrining keyingi yillarida qaysi asarlarni yozdi?	"Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" romanlari, "Nur qidirib", "Bolalik", "Bola Alisher" qissalarini yaratdi. Talaygina she'r va dostonlar bitdi.
24.	"1968- yilning 1- iyulida, oltmish uch yoshida Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan-bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo'ldim. Men hozir Oybekning o'limoldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'lim qaltirab, nafasim tiqilib qolmoqda... ". Ushbu fikrni oybek haqida kim aytgan?	Birinchi o'zbek ximik olimasi professor Birinchi o'zbek rassom ayoli Zarifa Saidnosirova
25.	Oybek hayotida qatag'on shamoli yellari yelgan yillar qaysi asarni yozdi?	"Qutlug' qon "
26.		
27.	"Navoiy" romanidagi qaysi qahramon "erka o'sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, may, musiqiy olamning yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha" deb ta'riflangan?	Mirzo Yodgor
28.	Mirzo Yodgorni Xuroson taxti uchun kurashga undayotgan ammasi kim edi?	Poyanda Sultonbegim
29.	Mirzo Yodgor kimning ko'magi bilan Jurjon hokimi amir Zohid Tarxiyning ustiga yurish qilib, uni osongina yengadi?	Turkman sultoni Hasanbekning ko'magi bilan
30.	Navoiyning bolalikdagi do'sti, Xuroson hukmdori kim edi?	Husayn Boyqaro
31.	Romanda qo'llangan " rusumoti jang " jumlasining ma'nosi?	Jang rusumlari, jang usullari
32.	Asardagi qaysi personaj " chorpaxil, beso'naqay " deb ta'riflangan?	Islim barlos
33.	"Insonlar haq yo'lini hamisha aqlning nuri bilan topmishlar." Ushbu fikr qaysi obrazga tegishli?	Navoiyga
34.	Asardagi qaysi qahramon jang arafasida munajjimning maslahati bilan ish ko'rishni " arbovi jang farz " deb ataydi?	Husayn Boyqaro
35.	Asarda oz so'zlovchi, sodda bahodir kim?	Zunnun Arg'unbek
36.	Zunnun Arg'unbek "Ko'p vaqt kulgisi yig'isiga aylanadi"	Yulduzlarni

	deb kim(nima)ni nazarda tutadi?	
37.	Asarda "ajoyib nafis san'at namunasi" deb nima ta'riflangan?	Husayn Boyqaroning qilichi
38.	Mizro Yodgorning dushmanga qarshi kurashga hozirlik ko'rayotgani haqida H.Boyqaroga kim(lar) bildiradi?	Qorovullar
39.	H.Boyqaroning Mirzo Yodgorga qarshi urushi oldidan qaysi musiqa asboblari chalinadi?	Karnay, surnay, nog'ora
40.	Qo'shinning o'ng tomoni qanday nomlanadi?	Burong'or
41.	Qo'shinning chap tomoni qanday nomlanadi?	Jurong'or
42.	Qo'shinning o'rta qismi qanday nomlanadi?	G'o'l
43.	Husayn Boyqaro qo'shinning o'ng tomoniga kimlarni joylashtiradi?	Islim Barlos bilan Valibek
44.	Kimlar Mirzo Yodgorning qo'shiniga orqa tomondan zarba berishni mo'ljallashadi?	Shayx Temur bilan Zunnun Arg'unbek
45.	Mirzo Yodgor qo'shinning chap tomoniga kimni sardor qilib tayinlagan edi?	Amir Ahmadali barlosni
46.	Asardagi qaysi qahramon qilichbozlikda mohir edi?	Valibek
47.	Asardagi qaysi qahramon jangda o'zini arslonsifat tutar edi?	Islim Barlos
48.	Mirzo Yodgor qo'shinidagi qaysi jangchilar o'z odamlarini urib, otdan yiqib, kiyim-bosh, qurollarini shilib oladi?	Mo'g'ullar
49.	Asardagi qaysi qahramon "qatorasiga yetti ot ustidan sakrab o'tganligi bilan dong chiqargan, chittakdek yengil, chaqqon, qarchig'ayday olg'ir" deb ta'riflangan?	Amir Badriddin
50.	Amir Badriddin obrazi yana qaysi asarda uchraydi?	"Jaloliddin Manguberdi" tragediyasida
51.	Mirzo Yodgor Turkman otliq jangchilarni qo'shinning qaysi qismiga joylashtirgan edi?	Markaziga
52.	Asardagi qaysi qahramon "zarbaning shiddati bilan tadbirni juda mos ishlatar edi" deya ta'riflangan?	Husayn Boyqaro
53.	Qaysi holat Mirzo Yodgor qo'shini tarkibidagi turkman jangchilarining ruhini tushiradi?	O'ng va so'l qo'shinlarning qattiq zarbaga uchragani
54.	Husayn Boyqaroning chodirini kim qo'riqlar edi?	Shirim qorovul
55.	"Navoiy" romanidagi qaysi qahramon "erka o'sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, may, musiqiy olamning yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha" deb ta'riflangan?	Mirzo Yodgor
56.	Mirzo Yodgorni Xuroson taxti uchun kurashga undayotgan ammasi kim edi?	Poyanda Sultonbegim

57.	Mirzo Yodgor kimning ko'magi bilan Jurjon hokimi amir Zohid Tarxiyning ustiga yurish qilib, uni osongina yengadi?	Turkman sultoni Hasanbekning ko'magi bilan
58.	Navoiy Husayn Boyqaroning chodiriga kirganda, uning huzurida muqovasi ajoyib, go'zal yangi bir kitobni tizzasiga qo'yib o'tirgan shoir kim edi?	Hasanali Jaloyir
59.	Xurosonga hujum qilish uchun qo'shini bilan Amudaryo yoqasida turgan kim edi?	Sulton Mahmud
60.	Asarda keltirilgan "dorissaltanat", "dorilxalofat" so'zlarining ma'nosi?	Poytaxt
61.	Romanda "dunyoning yarmi ustida qilich o'ynatgan oqsoq jahongir" deb kim nazarda tutilgan?	Amir Temur
62.	"Olomon shafqat va marhamatning qadiga yetmas." Ushbu fikr asardagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?	Majididdin Muhammad
63.	"Haq so'zni aytgan og'izlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq kerak." Ushbu fikr qaysi obrazga tegishli?	Navoiyga
64.	Navoiy H.Boyqaroga nimani isloh qilish kerakligini aytadi?	Zakot solig'ini
65.	Navoiy o'rdadagi amaldorlarni nimaga qiyoslaydi?	Shiraga o'ch chirkin pashshalarga
66.	H.Boyqaro qaysi harakatni " saltanat tojiga otilgan haqorat " deb ataydi?	Amaldorlarning xalq tomonidan toshbo'ron qilinishini
67.	Navoiy saltanat tojini nimaga o'xshatadi?	Quyoshga
68.	Asardagi ajdarnafs obraz kim?	Xo'ja Abdullo Xatib
69.	Romanda Navoiy xalqni nimalarga qiyoslagan?	Daryoga, o'tga
70.	"Yurtning baxti barqaror bo'lsa, saltanat ham bexatar bo'lur." Ushbu fikr asardagi qaysi obraz tilidan aytilgan?	Navoiy
71.	Asarda qaysi shahar "davlatning yuragi" deb ta'riflangan?	Hirof
72.	Asardagi qaysi obraz o'zini " faqir " deb ataydi?	Navoiy
73.	"Farmoni oliyning har bir so'zi ko'ngillarga quyoshdek hayot bag'ishlagay." Ushbu fikr qaysi obrazga tegishli?	Navoiyga
74.	Navoiyning chodirida qaysi hayvonning tishidan yasalgan sandiqchalar bor edi?	Fil tishidan
75.	Navoiy safarda yurgan kezlarda qaysi janrlardagi she'rlarni yozgan edi?	G'azal, muxammas, tuyuq
76.	Navoiyning sadoqatli navkari kim edi?	Boboali

77.	Asarda daraxtzorlar nimaga qiyoslangan?	Bir to'p ko'lankaga
78.	Asarda tilga olingan ko'chmanchi xalq qaysi?	Afg'onlar
79.	Hirotdagi g'alayondan so'ng qaysi kasb egalari hali g'azabdan tushmagan edi?	Kosib-hunarmandlar, dehqonlar
80.	Hirotda boshqa ma'murlar tomonidan solingan zakotni kim bekor qiladi?	Xo'ja Abdullo
81.	Navoiy Husayn Boyqaroning farmonini qayerda o'qib eshittiradi?	Hirotning jome' masjidida xonaqosida
82.	Navoiy Hirotning ulug' olimlari va mudarrisilari bilan nima to'g'risida suhbatlashadi?	Madrasalar va mullabachchalarning ahvoli to'g'risida
83.	Mirzo Yodgor birinchi mag'lubiyatdan keyin yana kuch to'plab, qaysi shaharni ishg'ol qiladi?	Astrobodni
84.	Asarda " kar va sovuq " deb qaysi shahar ta'riflangan?	Hirotda
85.	"Umid, g'ayrat va imon yo'lida qadam qo'yilsa, maqsad yo'lidagi har qanday mushkulotni bartaraf qilmoq mumkin." Ushbu fikr asardagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?	Navoiy tilidan
86.	Husayn Boyqaro Hirotda shahriga kirolmagach, Navoiyning taklifi bilan qayerga chekinadi?	Sartog' o'langi degan mavzega
87.	Sulton Mahmud o'zining harbiy harakatlarini qaysi shahar atrofida olib borayotgan edi?	Balx atrofida
88.	Husayn Boyqaro qayerda bir guruh askarlaridan ayriladi?	Soqilmon dashtida
89.	Husayn Boyqaro to'qqiz rabotlik yo'lni bosib o'tib, qayerga boradi?	Nuratog'ga
90.	Husayn Boyqaro Nuratog'dan keyin qayerga borib, u yerda bir muddat dilgir yashaydi?	Maymananing Chahor bog'iga
91.	Husayn Boyqaroning qoniga ona suti bilan kirgan narsa nima?	Toj-u taxt dag'dag'asi
92.	Husayn Boyqaro Mirzo Yodgorning shavkati mustahkam emasligini kimlar orqali bilib oladi?	Voqeanavislar orqali
93.	Husayn Boyqaroning Hirotda qarshi jang kunini kim belgilaydi?	Miroxur
94.	Husayn Boyqaro Hirotda qarshi kurashi oldidan o'z manzilini qayerga ko'chiradi?	Murg'ob daryosi bo'yiga
95.	Husayn Boyqaro Hirotda qarshi kurash oldidan qayerda majlis tuzadi?	Tog'kun degan mavzeda
96.	Pilpoyon mavzesida Husayn Boyqaro lashkariga kimlar qo'shiladi?	Muhammad Arlot, Amir Sarbon
97.	Husayn Boyqaro Hirotda qarshi kurashga nechta suvoriy bilan yo'lga chiqadi?	850 ta
98.	Husayn Boyqaro Hirotda qarshi kurash oldidan qaysi avliyo bilan uchrashib, undan duo oladi?	Bobo Xokiy

99.	Bobo Xokiyning yoshi nechchida edi?	Taxminan 80 yoshlarda
100.	Bobo Xokiy g'orda nimalar bilan hamroh tutingan edi?	Qushlar bilan
101.	Bobo Xokiy Husayn Boyqaroga nimani in'om qiladi?	Nayzani
102.	Husayn Boyqaro lashkari Hirotga yaqin qaysi chashma yonida to'xtab, jangga tayyorgarlik ko'rishadi?	Juzduq chashmasi yonida
103.	Asarda Shirim qorovul chaqqonlik va hiyla bobida kimga qiyoslangan?	Mehtarbod Yaldoga
104.	Husayn Boyqaro kimlarni Bog'i Zog'onning katta darvozasini ochishga yuboradi?	Muzaffar barlos, Ibrohim barlos, darvesh Arlot
105.	Husayn Boyqaro kimni Bog'i Zog'onning Gavharshodbegim madrasasiga yopishgan darvozasini o'rashga yuboradi?	Sulton Xo'ja O'zbek
106.	Romanda qaysi mozor va ko'cha nomlari keltirib o'tilgan?	Imom Faxriy mozori, Xiyobon ko'chasi
107.	Husayn Boyqaroning dushman ichidagi sodiq kishisi kim?	Miroxur
108.	Mirzo Yodgorning qasri Hirotning qayerida joylashgan edi?	Bog'i Shimolida
109.	"Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal." Ushbu fikr asardagi qaysi obrazga tegishli?	Navoiyga
110.	Navoiyning "mangu hamrohlari" nimalardan iborat edi?	Tafakkur, amal, harakat
111.	Asarda qo'llangan "manqal" so'zining ma'nosi?	Sandal, ko'chma o'choq
112.	"Navoiy" romanida ijod dardi nimaga qiyos etilgan?	Tug'uruq dardiga
113.	Romanda aytilishicha, Navoiy necha yoshidan boshlab she'rlarni yod ola boshlaydi?	3-4 yoshidan boshlab
114.	Navoiy qanday buyumlarni yaxshi ko'rar edi?	Ingichka san'at namunalari bo'lgan buyumlarni
115.	Asardagi qaysi obraz "har vaqt mutavoze, yuvosh tabiatli,	
116.	kamrtarin yigit" deb ta'riflangan?	Shayx Bahlul
117.	Asarda qo'llangan "tarabxona" so'zining ma'nosi?	Bazm qilinadigan joy
118.	Husayn Boyqaro Navoiyni uning qarshiligiga qaramay, qaysi lavozimga tayinlaydi?	Muhrdorlik lavozimiga
119.	Saroy pahlavonlarining eng zo'ri va mohiri kim edi?	Muhammad Sayid
120.	Husayn Boyqaro Muhammad Sayidga qanday laqab qo'ygan edi?	"Pahlavoni olam"
121.	Muhammad Sayid kimning qalin do'sti edi?	Navoiyning
122.	" Gushtgirlik " so'zining ma'nosi?	Kurash

123.	Muhammad Sayid necha yoshli jiyanini chetdan keladigan pahlavonlar bilan kurashga tayyorlayotgan edi?	18 yoshli
124.	Kim Navoiyning amir bo'lganligi haqidagi xabarni " Xuroson tarixining oltin sahifasi " deb ta'riflaydi?	Muhammad Sayid
125.	Kim Navoiyning amir bo'lganligi haqidagi xabarni " El baxtining tug'ilgan kuni " deb ta'riflaydi?	Xo'ja Afzal
126.	Saroydagi parvonachi kim edi?	Majididdin
127.	Saroydagi qaysi amaldor qimorboz edi?	Amir Mo'g'ul
128.	Asardagi har vaqt yasanib-tusanib, tovlanib yuradigan amaldor kim?	Nizomulmulk
129.	Navoiy o'z uyida uyushtirgan bazmga qayerlik olimlar tashrif buyurishadi?	Hirot, Iroq, Ozarbayjon olimlari
130.	Navoiyning yordami bilan moddiy ahvoli yaxshilanib, ilm dunyosiga ancha tanilgan qahramon kim?	Sultonmurod
131.	Navoiyning ta'biricha, kim osmonni pastga tushirib, sayyoralarning harakat qonunlarini insonlarga tanitgan edi?	Mirzo Ulug'bek
132.	Munajjimning fikriga ko'ra, barcha shuhratli ishlar qaysi yulduzlar "podshoh" bilan "vazir" bo'lgan kuni ro'y beradi?	Shams - podshoh, Qamar - vazir bo'lgan kunda
133.	Navoiyning muhr bosish marosimi qaysi kunga tayinlanadi?	Zuhro yulduzining "podsho" bo'lgan kuni
134.	Qaysi amaldor ko'p ishlarda Navoiyga bo'ysunishga tixirlik qilardi?	Muzaffar barlos
135.	Romanda qaysi meva nomlari tilga olingan?	Anor, olma, nok
136.	Navoiyning muhr bosish marosimida qaysi shoirlar ishtirok etishadi?	Shayxim Suhayliy, Hofiz Yoriy, Hiloliy, Hasan Ardasher
137.	Darvesh tabiatli qari shoir kim?	Hasan Ardasher
138.	Asarda "ilm bilan san'atni birlashtirganlar" deb kimlar nazarda tutilgan?	Raqqoslar, musiqachilar, naqqoshlar
139.	Asarda "ilm dunyosiga yolg'iz shallaqlik bilan kirgan" deb kim ta'riflangan?	Mavlono Shahobiddin
140.	Asardagi tili achchiq, o'jar shoir kim?	Binoiy
141.	"Sopalak tosh bilan Badaxshon la'li va aqiqi boshqa- boshqa narsadir." Ushbu fikr qaysi obrazga tegishli?	Mavlono Shahobiddinga
142.	Romanda qaysi ijodkorning sho'x-o'ynoqi g'azallari haqida gap ketadi?	Lutfiyning
143.	"Turkiyning balog'at va kamoloti mavlono Lutfiy, xususan, Alisher janoblarning g'azaliyotida oftob	Hasan Ardasher

	kabi namoyon bo'ldi." Ushbu fikr qaysi obrazga tegishli?	
144.	Qaysi ijodkorlarning zaboni (ovozi) " asli zotida ilhom va she'r uchun yaratilgan " deb ta'riflanadi?	Nizomiy va Furdavsiyning
145.	Qaysi qahramon o'zbek g'azallarini tinglaganda, temirchilarning "taraq-turug'i"ni eshitgandek azobni his qilishini aytib o'tgan?	Mavlono Binoiy
146.	Romanda tilga olingan temirchilar ko'chasi qayerda joylashgan edi?	Chorsuning orqasida
147.	Romanda qaysi tilning go'zalligi, boyligi va shirinligi e'tirof etilgan?	Fors tilining
148.	Qaysi shoir o'z ona tilisi turkiy til bo'lsa-da, har vaqt qo'liga qalam olganda, beixtiyor fors va arab tiliga murojaat qilardi?	Sultonmurod
149.	Kim Navoiyni " zullisonnayn " deb ataydi?	Mullo Usmon
150.	Asardagi qaysi obraz "darveshona xayolchan, sokin, yumshoq" deb ta'riflangan?	Hasan Ardasher
151.	Asarda "bugungi fors she'rlarining ulug' ustodi" deb kim nazarda tutilgan?	Abdurahmon Jomiy
152.	Asarda qaysi holat turkiy tilning g'alabasi deb ta'riflangan?	Jomiyning turkiy tilga nisbatan bildirgan fikrlari va ko'rsatgan iltifoti
153.	Navoiy uyida yig'ilgan mehmonlarga aytib bergan hikoyacha kim haqida edi?	Soxta bir qalandar haqida
154.	"Inson uchun ko'ngilning sofligi, boyligi kerak." Ushbu fikr asardagi qaysi obrazga tegishli?	Navoiyga
155.	Navoiy ilmni nimaga o'xshatadi?	Daraxtga
156.	"Gulning to'ni qirq parcha bo'lsa ham, u guldir!" Navoiy ushbu fikrni kimga qarata aytgan edi?	Sultonmurodga
157.	Navoiy qayerda yangi robot qurdirayotgan edi?	Childuxtaronida
158.	"Navoiyning dili bilan xalqning dili hamisha payvanddir." Ushbu fikrni asardagi qaysi obraz aytgan?	Bo'yoqchi
159.	Kim Navoiyni " pok odam " deb ta'riflaydi?	Qorovul chol
160.	Navoiyning qabuliga kelgan juldur kiyimli, o'rta yashar dehqon qayerlik edi?	Isfizorlik
161.	" Hukumatga ot-ulov bermoq eskidan bir taomil. " Ushbu fikr asardagi qaysi obraz tilidan aytilgan?	Dehqon

@filologhamroyevU ga yoki +998916493524 orqali savol javoblar yuzasidan fikr mulohazalaringizni yo'llang.

162.	Dehqonning otini aldab olib ketgan "qozizoda" kim edi?	Tojiddin
163.	Asarda Navoiy tilidan qaysi xalq maqoli keltirilgan?	"O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma."
164.	Asardagi "qirg'iy burun yigit" kim?	Qilichbek
165.	Oybek Navoiy haqida qaysi janrlarda asarlar yaratgan?	She'r, doston, roman, maqolalar
166.	Navoiy haqida dunyo adabiyotida birinchi bo'lib yaratilgan nasriy asar qaysi?	"Navoiy" romani (Oybek)

Tuzuvchi: Umid Hamroyev Mustafoyevich
+998916493524
@filologhamroyevU